

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.A.Yuldashev	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlarning ehtiyoj va manfaatlarini gumanizatsiyalash masalalari	218
I.A.Asatulloev	
Alfred adler falsafasida qalb tushunchasining psixoanalitik tahlili	223
D.Sh.Sagdullayeva	
Ijtimoiy - siyosiy modernizatsiya jarayonining tarixiy ildizlari	228
S.S.Sodiqov	
Yoshlarda faol pozitsiyani shakllantirishning milliy-tarixiy asoslari	234
I.A.Hamdammov	
Mirzo Ulug'bek – temuriylar renessansi asoschisi	240
H.X.HAKIMOV	
Развитие социально экономических идей в трудах ученых энциклопедистов Узбекистана в период первого ренессанса	245
Q.H.Boymirzayev	
Abu Abdulloh Rudakiyning hayoti va faoliyat yo'li, uning Musulmon Sharqidagi ijtimoiy-madaniy muhitning shakllanishidagi o'rni	252
B.M.Qandov, N.A.Abduvalieva	
Yangilanayotgan O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy asoslari	256
E.T.Qalqanov	
Vatanparvarlik madaniy hodisa sifatida ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari	261
Sh.X.Tog'ayev	
Yangilanayotgan O'zbekistonda o'zbek xalqi milliy g'ururini shakllantirishning manbalari va vositalari	266
I.A.Ikramov	
Jamiyat ijtimoiy hayotida ijtimoiy xotira va madaniy qadriyatlar strukturasi	272
V.B.Zayniddinova	
Jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy-madaniy texnologiyalar strategiyasi	277
J.M.Miraxmedov	
Milliy o'zlikni anglash kontekstida tarixiy ongning gnoseologik tahlili	281
B.X.Mirzaraximov	
O'zbekiston yangi taraqqiyot bosqichida turizm madaniyati rivojlanishining ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy omillari	285
D.E.Normatova	
Ekzistensializm – hayot falsafasi	293

SIYOSAT

I.A.Raximov	
“Obod va xavfsiz mahalla” tamoyilining xavfsiz muhitni yaratishdagi o`ziga xos mexanizmlari”	297
M.H.Rustamaliyev	
Jamiyatni barqaror taraqqiyotini ta'minlashda siyosiy boshqaruvga ehtiyojning kuchayishi	302
N.B.Dexkanov	
Siyosiy piar (pr)ning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni	306
M.X.Baratov, R.T.Xakimov, B.T.Akramxodjaev	
Jahon Savdo tashkilotining tuzilishi, funksiyalari va faoliyat doirasi	312
J.K.Yusubov, F.X.Mustafoyeva	
Mamlakatimiz ijtimoiy rivojlanishida jahon davlatlari tajribasidan foydalanish	323
J.K.Yusubov, D.A.Xusanova	
Ahloqan yetuk va fidoiy davlat fuqarolik xizmatchilarini tarbiyalash – mamlakat rivojining muhim omili	327

TARIX

A.Sharafiddinov	
Farg'ona viloyatida yog'-moy sanoatining shakllanishi tarixidan (XIX asr oxiri XX asr boshlari)	331



UO‘K: 1.008.297(575.9)

YOSHLARDA FAOL POZITSIYANI SHAKLANTIRISHNING MILLIY-TARIXIY ASOSLARI**НАЦИОНАЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ АКТИВНОЙ ПОЗИЦИИ У МОЛОДЕЖИ****NATIONAL-HISTORICAL FOUNDATIONS OF FORMATION OF AN ACTIVE POSITION IN YOUNG PEOPLE****Sodiqov Sanjarbek Subxoniddin o‘g‘li**

Andijon davlat universiteti falsafa kafedrası doktoranti

Annotatsiya

Maqolada “faol pozitsiyaning milliy-tarixiy asoslari” “faol pozitsiya” “pozitsiya”, “hayotiy pozitsiya”, “ijtimoiy pozitsiya”, kabi tushunchalarning mohiyati va bugungi kundagi ijtimoiy ahamiyati o‘rganilgan. Yangi O‘zbekiston sharoitida fuqarolik jamiyatini barpo etish, huquqiy demokratik davlat qurish va modernizatsiya jarayonida yoshlarda faol ijtimoiy pozitsiyaning milliy-tarixiy roli ochib berilgan. Faol ijtimoiy pozitsiya zamonaviy yoshlar ongining shakllanishida muhim omil sifatida tahlil etilib, unda yoshlarning innovatsiyalarga intilishi, intellektual salohiyati yuksalishining ahamiyati ko‘rib chiqilgan.

Аннотация

В статье исследуются сущность и социальная значимость таких понятий, как «позиция», «жизненная позиция», «социальная позиция», «активная позиция». раскрывается роль активной социальной позиции молодежи в процессе построения гражданского общества, строительства правового демократического государства и модернизации в условиях нового Узбекистана. Анализируется активная социальная позиция как важный фактор формирования сознания современной молодежи, рассматривается значение стремления молодежи к инновациям и интеллектуального потенциала.

Abstract

The article examines the essence and social significance of concepts such as “national-historical foundations of active position”, “active position”, “position”, “vital position”, “social position”. The national-historical role of the active social position of young people in the process of establishing a civil society, building a legal democratic state and modernization in the conditions of the new Uzbekistan is revealed. The active social position is analyzed as an important factor in the formation of the consciousness of modern youth, and the importance of young people's desire for innovation and intellectual potential is considered.

Kalit so‘zlar: milliy-tarixiy qadriyatlar, axloqiy qiyofa, yoshlar faol pozitsiyasi, pozitsiya, hayotiy pozitsiya, ijtimoiy pozitsiya, faol pozitsiya.

Ключевые слова: позиция, жизненная позиция, социальная позиция, активная позиция, активная позиция молодежи, нравственный облик.

Key words: national-historical values, moral image, youth active position, position, vital position, social position, active position.

KIRISH

Yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini yaratish faqat zamonaviy tarbiyaga asoslanadi, deb hisoblash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki har qanday zamonaviy tarbiya tarixiy, milliy-ma‘naviy negizlarga asoalanishi kerak. Milliy tarix, milliy tarbiya asoslarining shakllanishi asrlar davomida milliy qadriyatlar, xalqning tarbiya tamoyillaraiga asoslangan. Ular milliy tarix, mentalitet va millat turmush tarzini aks ettiradi. Pedagoglarning fikriga ko‘ra ta‘lim va tarbiyani kompleks xolda birgalikda amalga oshirib borish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. “Ta‘limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta‘limdan ajratib bo‘lmaydi”[1]

Tarbiya soxasida va yoshlar tarbiyasi soxasida samarali usullaraadan biri tarixiy milliy an‘analar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanishdir. Tarixiy milliy tarbiya asoslarining ildizlari muqaddas “Avesto”ga borib taqaladi. Unda aks etgan “Ezgu o‘y, ezgu fikr, ezgu amal” g‘oyasi yoki aniqroq qilib aftadiga bo‘lsak, yoshlar tarbiyasining tamoyili hozirgi kunda ham o‘z

FALSAFA

ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Aytish mumkinki, bu tamoyilda so'z va ish birligi, xalqning ideallari aks etgan bo'lib, kishilarning kundalik hayotida ham, jamiyatning ijtimoiy hayotida ham amal qilinishi faqat progressiv taraqqiyotga xizmat qiladi.

MATERIAL VA METODLAR

Taxlil qilinayotgan davrda tabiiy va ijtimoiy fanlar soxasida ulkan yutuqlar qo'lga kiritildi. Abu Ali ibn Sino, Axmad Farg'oniy, Abu Rayxon Beruni, Farobiy, Al Xorazmiy kabi buyuk ensiklopedist olimlar, mutafakkirlarning hayoti va faoliyati, ular tomonidan yaratilgan ilmiy asarlarning ahamiyati insoniyat hayotining barcha davrlarida dolzarbligini yo'qotmaydi. Xorazmda Abu Rayxon Beruni boshchiligida o'z davrining yetuk olimlari bilan Ma'mun akademiyasining yaratilishi va uning atrofiga birlashgan ulkan mutafakkirlarning matematika, geometriya, astronomiya, fizika, kimyo, meneralogiya, geografiya, tibbiyot, falsafa, huquqshunoslik, lingvistika va boshqa fanlar soxasida amalga oshirgan ilmiy faoliyati, tadqiqotlari, ular tomonidan yunon olimlarining yaratgan asarlarini arab va turkiy tillarga tarjima qilganligi Markaziy Osiyo uchungina emas, Yevropa ilm-fan taraqqiyoti uchun ham ulkan ahamiyatga ega bo'ldi. Bunday ulkan ilm-fan yutuqlari hozirgi davrimiz uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Mamlakatimiz hududiga islom dinining krib kelishi milliy tarixiy taraqqiyotga ulkan ta'sir ko'rsatdi. Islom dini jamiyat, inson hayotining barcha qirralarini to'la qamrab oldi. Jamiyat soxalari: iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, xarbiy, madaniy, axloqiy, estetik, ta'lim va inson hayotining barcha jihatlarini ikir-chikirigacha o'z ta'siriga oldi va islomning nazariy fundamental asoslari, shariat qoidalari va qadriyatlar asosida tartibga soldi. Ayniqsa, islom dinining O'rta Osiyoda tarqalishi mahalliy xalq hayotining ma'lum barqaror taraqqiyotini ta'minladi. Hududda tarixida bo'lgan "tinch" davrlarda ham yoki nisbatan notinch bo'lgan taxlikali davrlarda ham bu dinning ta'siri jamiyat ijtimoiy hayotining barcha soxalarini tartibga solib turdi.

So'nggi vaqtlarda falsafiy adabiyotlarda "pozisiya", "hayotiy pozisiya", "ijtimoiy pozisiya" va "faol pozisiya" kabi tushunchalar ko'plab uchramoqda. Bu tushunchalarning umumiy ma'nosi shaxsning hayotda ma'lum maqsadlarga qaratilgan, ularning asosida turgan ehtiyojlarining qondirilishini ta'minlaydigan ijtimoiy jarayonlardagi o'rni, ularga munosabati hamda bu jarayondagi xatti-harakatlarini anglatadi. Har qanday jamiyatning taraqqiyotida, yoshidan, kasbidan hamda ijtimoiy hayotda egallab turgan o'rnidan qat'i nazar, uning a'zolarining ijtimoiy hayotga, unda amalga oshayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy faoliyati va bu sohalaridagi jarayonlarga munosabati, undagi roli, jamiyat va o'z taraqqiyoti yo'lida egallab turgan pozisiyasi muhim ahamiyatga ega.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Aytish mumkinki, islom qamrab olmagan birorta muammo yo'q: jamoaga tegishli barcha masalalar, insonning jamiyatda yurish-turishi, axloqi, mehnat faoliyati, o'zini qanday tutishi, ota-ona va bolalar munosabati, ta'lim olish, kasb-hunar egallash, huquqiy va oilaviy munosabatlar va boshqalar islom g'oyalari va qoidalari asosida yoritilgan. Islom dini barcha unga e'tiqod qiluvchilar, ayniqsa yoshlarning tarbiyasi muammolarini to'la o'z nazoratiga olib, ularni xalq etishning yo'llarini jamiyat ongiga singdirdi. Natijada barcha musulmonlar uchun qulay bo'lgan, barqaror, tinchgina, komfort hayot va unga mos tarzda axloq va odob shakllandiki, unda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xar bir savol yoki masala uchun uning javobi va yechimi topiladigan bo'ldi.[2]

O'rta Osiyoda azaldan mehnatsevarlik qadriyat sifatida shakllangan. Hududimizda Xanafiya mazxabining, keyinroq Naqshbandiya tariqatining mehnat to'g'risidagi ta'limotining tarqalishi yoshlar tarbiyasi soxasida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu ta'limotda halol mehnat qilish, Olloxga e'tiqod qilish bilan birga o'zining oilasi va farzandlarini unutmashligi, ular uchun mehnat qilishi, ya'ni e'tiqodni yoddan chiqarmagan xolda foydali faoliyat olib borishining zarurligi kabi g'oyalar aks etgan.[3] Xanafiya mazxabining nazariyotchilaridan biri Xakim as Samarkandi "Kitobi as- savod al azam" kitobida kasb-hunarni egallash dinning talabi, Qur'on va xadislardan darak beradi, buni inkor etish Xudoga qarshi borish bilan teng. Inson o'zining xalol mehnati bilan yashashi zarur, degan fikrni aytib o'tgan.

Yoshlarda faol fuqarolik pozisiyasini shakllantirishda bilim muhim rol o'ynaydi. Shunga ko'ra ularni bilim olishga yo'naltirish, dolzarb, zamonaviy bilimga ega bo'lishga intilayotgan yoshlar uchun sharoit yaratib berish, ularni intellektual salohiyatini yuksaltirish hamda uni realizatsiya qilish tomonga to'g'ri yo'naltirish davlatimizning strategik vazifalaridan biri. Bu borada O'zbekiston Prezidenti quyidagicha fikrlaydi: "Men xar gal yoshlar bilan uchrashganimda, "Ilmni qadrlang, ilmga

intiling”, degan soʻzlarni aytishdan charchamayman. Oʻzingiz koʻryapsiz, dunyoda oʻqigan, zamonaviy ilm va hunarlarni puxta egallagan, yosh avlodini ayni shu ruhda tarbiyalagan xalqlar, davlatlar jadal rivojlanmoqda.[4]

IX asarda yuzaga kelgan Xanafiya mazxabi gumanizm, tolerantlik, ilm-fanga ijobiy munosabat, vatanparvarlik va mehnatsevarlik kabi progressiv gʻoyalarga hamda qoidalarga asoslanganligi uchun ham rasmiy ravishda davlat tomonidan qabul qilinmasada, maxalliy axolining katta qismi tomonidan qabul qilinib, qoʻllab-quvvatlandi. Bu jarayonlar ulkan Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi taraqqiyotiga katta turtki boʻldi. Maxalliy madaniyat yuqorida qayd etilgan jixatlari bilan kirib kelgan islom dini va uning nazariyalariga aks taʼsir koʻrsatib boyitdi. Misol uchun Markaziy Osiyoda shakllangan musulmonlik xuquqi – fikx oʻz davrining eng ilgʻor, insonparvarlik va xalqparvarlikka asoslangan adolatli huquq tizimiga aylandi. Xanafiya tomonidan rivojlantirilgan musulmonlik xuquqi moslashuvchanligi, adolatligi, liberalizm, bagʻrikengligi, qulayligi kabi xususiyatlari tufayli kishilar tomonidan yaxshi qabul qilindi va tez tarqaldi.

Mintaqada Abu Muqotil as Samarkandi, Abu Bakr as Samarkandi, Abulmuin an Nasafi, Abu Nasr al Moturudi, al Buxori, at Termizi, Burxoniddin Margʻinoni kabi Xanafiya mazxabining buyuk vakillari - allomalar yetishib chiqdi. Ularning ilmiy va madaniy-maʼnaviy faoliyati mamlakatimizning ilmiy va madaniy-maʼnaviy taraqqiyoti katta taʼsir koʻrsatdi. Margʻinoni va Moturudi tomonidan yaratilgan “Xidoya” va “Kitob at tavxid” asarlari Markaziy Osiyoda taraqqiy etgan islom madaniyatining qaytarilmas durdonalari hisoblanadi. Keyinroq Baxouddin Naqshbandi tariqatining shakllanishi, uning faol mehnat qilish toʻgʻrisidagi gʻoyalari mintaqaning oʻz davrida iqtisodiy taraqqiyotiga katta hissa qoʻshdi.

Buyuk xind mutafakkiri va jamoat arbobi Javaxarlal Neruning yozishicha, VIII asrda Bagʻdod shaxrida xalifa Mansur tomonidan maxsus markaz - devonxona tashkil etilgan boʻlib, unda yunon, sanskrit, lotin va boshqa tillardan arab tiliga ilmiy asarlar tarjima qilingan hamda ilmiy tadqiqotlar olib borilgan [5]

Imom Gʻazzoliyning fikricha, bilim insonni komil inson sifatida yuksalib borishi, taraqqiyotining manbai. Farobiy fozillik xususiyatiga ega boʻlgan va uni maqsad qilgan inson va insonlar jamoasi, jamiyat, davlat taraqqiy etadi va barxayot boʻladi, deb taʼkidlagan. Fozil inson maʼnaviy barkamol inson, bilimli inson, oʻzini va Xudoni anglagan inson, lekin Xudoni anglab yetish U yaratgan narsalarni anglashdan boshlanadi, deb aytgan.[6] Aziziddin Nasafiying soʻzlariga koʻra, insonda uchta rux yashaydi: xayvon ruxi, inson ruxi a farishta ruxi. Birinchisi koʻproq yoshlikda bilimsizlik bilan bogʻliq, ikkinchisi bilim olish va tarbiya, aqliy faoliyat natijasida erishiladigan xolat boʻlib, oʻzgarib turadi. Bunday faoliyatning samarasi insonning ezgulik yaratishi bilan bogʻliq boʻlib, unda uchinchi rux, yaʼni farishta ruxining taraqqiy etishiga olib keladi. Fikrimizcha, yoshlarning barkamol shaxs sifatida tarbiyalanishi ana shu uchinchi ruxga mos keladi. Koʻrinib turibdiki, bilim olish, bilimli shaxs boʻlib yetishish va buning asosida yoshlarni jamiyatning gullab-yashnashi yoʻlida faoliyat olib borish yoʻlida tarbiyalash barcha tarixiy davrlarda ham dolzarb muammo boʻlib kelgan ekan.

Maʼlumki, yoshlar mamlakatimiz aholisining oltmish foizini tashkil etadi, jamiyatning yirik ijtimoiy qatlami sifatida uning taraqqiyotida muhim rol oʻynaydi. Yoshlar – Oʻzbekistonning kelajagi va istiqboli. Oʻzbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev taʼkidlaganidek: “Biz yoshlar siyomosida umrimiz mazmunini, hayotimizning asosiy samarasini koʻramiz. Yangi Oʻzbekistonni azmu shijoatli yoshlar bilan birga bunyod etamiz!

Bizning taraqqiyot strategiyamizda har jihatdan barkamol rivojlangan, erkin fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qatʼiy hayotiy qarashlarga ega yigit-qizlarni tarbiyalash eng ustuvor vazifalarimizdan biridir” [7].

Yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy pozitsiyasini ilmiy-falsafiy tahlil qilish nazariyagina emas, amaliy ahamiyatga ham ega. Bu nuqtayi nazardan jamiyatda yoshlarning ijtimoiy pozitsiyasini oʻrganishning ilmiy asoslariga eʼtibor qaratgan holda uning xususiyatlari, determinantlari va omillarini ham oʻrganish zarur. Bu borada eng avval nazarda tutish zarur boʻlgan jihatlardan biri yoshlarning ijtimoiy oʻziga xosliklari, jumladan, psixologiyasi, maʼnaviyati, baʼzan hayotiy tajribasining kamligi hisobiga hayot, turmush tarzi, yashash haqida aniq tasavvurlarga ega emasligi, koʻpgina muammolarni hal qilishda shoshma-shosharlik qilishlari kabilar yoshlar pozitsiyasi masalasiga ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab etadi.

Oʻzbekiston prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan Yangi Oʻzbekistonni yaratish konsepsiyasi taklif etilishi mamlakatimiz taraqqiyotining istiqbollari belgilab berdi. Albatta, Yangi Oʻzbekiston jamiyatini taraqqiy ettirish vazifasi yoshlar faol pozitsiyasining shakllanishini taqozo

FALSAFA

etadi. Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli kitobida mamlakatimiz yoshlarini Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash, ilm-fan va innovatsiyalarga ularni keng jalb qilish, yoshlarni “Yangi O‘zbekiston –Uchinchi Renessans sari!” shiori ostida birlashtirish kabi muammolarni hal etish maqsadida bu borada tizimli va samarali chora-tadbirlarni tashkil etish vazifasi qo‘yilgan [8].

Yuqorida prezidentimiz tomonidan qo‘yilgan vazifani bajarish mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini muntazam, tizimli ravishda amalga oshirib borish orqali mazkur siyosatni yangi bosqichga ko‘tarishni talab etadi. Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi bir paytning o‘zida bir necha muammolarni baravar hal etishni talab etmoqda. Yoshlarni tarbiyalash, ularda Yangi O‘zbekiston jamiyatiga mos keluvchi axloqiy qiyofani, faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish kun tartibida turgan dolzarb muammoga aylandi. Axloqshunoslik nazariyalariga ko‘ra, ma‘naviy qiyofani insonning hayoti, odobi, xatti-harakatlari, faoliyati, axloqiy me‘yorlari va axloqiy tamoyillarining majmuasi sifatida qarash mumkin. Har bir milliy ijtimoiy taraqqiyot bosqichi jamiyat a‘zolari oldiga davr ruhiga va talablariga mos bo‘lgan ma‘naviy-axloqiy qiyofani shakllantirish vazifasini qo‘yadi. Bu nuqtayi nazardan ma‘naviy-axloqiy qiyofa ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat taraqqiyotining asosiy tendensiyalarini, maqsad va vazifalarini, ehtiyojlarini hamda oriyentatsiyasini ifoda etadi. U bunday sifatda tarixiy hodisa hisoblanadi. Axloq ijtimoiy ongning shakllaridan biri hisoblansa, ma‘naviy-axloqiy qiyofa axloqning tarkibiy qismi sanaladi. Ma‘naviy-axloqiy qiyofani shakllantirish unga muvofiq bo‘lgan tizim, struktura, iqtisodiy munosabatlar jarayoni bilan bog‘liq.

Ma‘naviy-axloqiy qiyofaning xususiyatlariga e‘tibor qaratamiz. Ma‘naviy-axloqiy qiyofa markazida uni tashuvchisining pozitsiyasi turadi. Bu jarayon shaxsning hayotiy munosabatlarda faol ishtirokini talab etadi. Demak, bu holat faol hayotiy jarayon sifatida ta‘riflanishi mumkin. Bu jarayon jamiyat taraqqiyoti uchun obektiv zarurat hisoblanadi. Faol ijtimoiy pozitsiya yoshlardan ma‘naviyatning muhim elementlari bo‘lgan vatanparvarlik, sadoqat, burch, vijdon, qonunga itoat, mas‘uliyatni anglash, jamiyatda yuz beradigan salbiy ijtimoiy hodisalarga nisbatan murosasizlik kabi axloqiy xususiyatlarga ham ega bo‘lishni talab etadi.

Faol hayotiy munosabat – yoshlar ongini shakllantirishda asosiy omil, shu bois aynan ana shu axloqiy sifatni shakllantirish zarur bo‘ladi. Ijtimoiy ma‘nodagi faollikni iqtisodiy munosabatlar tizimining o‘zida shakllantirish mumkin. Uni sekin-asta axloqiy tamoyil darajasigacha ko‘tarish, muayyan ijtimoiy-siyosiy muhitda axloqiy qiyofa tizimiga aylantirishga erishish mumkin.

Hozirgi kunda nafaqat iqtisod, balki tashqi va ichki siyosat sohasida ham ulkan modernizatsiya jarayonlari amalga oshib bormoqda. O‘zbekiston Markaziy Osiyo siyosiy makonidagina emas, dunyo miqyosida ham ijtimoiy-siyosiy mavqeyining yuksalib borishiga erishmoqda. Jamiyatda amalga oshib borayotgan demokratiya, liberalizatsiya va oshkoralik jarayonlari, tanqid va o‘z-o‘zini tanqid muhiti yoshlarning fikrlarini ochiq ayta olishiga, ularda demokratik dunyoqarash va siyosiy ongning rivojlanishi, yetuk va faol bo‘lishiga katta imkoniyatlar yaratmoqda. Mazkur jarayonlar insonning ijtimoiylashuviga ta‘sir etadi.

Insonning ijtimoiylashuvi muammosiga oid turli yondashuvlar mavjud. Inson falsafasiga oid ko‘plab asarlar yozgan rossiyalik olim F.Minushev fikricha, inson ijtimoiylashuvi uning ehtiyojlari qondirilishi muammosi bilan bog‘liq bo‘lib, bunda insonlar o‘zaro munosabatlarga kirishadilar va ehtiyojlarini qondirishga birgalikda harakat qiladilar.[9] T.Parsonsning fikricha, insonlarning ijtimoiylashuvi jarayonida madaniyat muhiti muhim bo‘lib, unda yoshlar o‘zaro madaniy, ma‘naviy, axloqiy va boshqa munosabatlar ta‘sirida bo‘ladilar. Bunda madaniyat, madaniy meros, qadriyatlar, an‘analar, axloq qoidalari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular jamiyat a‘zolari, xususan, yoshlarning shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatadi. [10]

Ijtimoiy guruh sifatida yoshlarning o‘ziga xosligi yuqorida qayd etildi. Buni hisobga olgan holda ularning faolligi, xatti-harakatlari, intilishlarini, ijtimoiy faolligini to‘g‘ri yo‘naltirish, salohiyatini yuzaga chiqarish hamda undan foydalanish uchun imkoniyatlar yaratilishi zarur. Jamiyatning mas‘uliyatli a‘zolari, ziyolilar, siyosatchilar va yoshlar faoliyatiga aloqador bo‘lgan tegishli tashkilotlar bu jarayonning muntazamligi va izchilligini ta‘minlab berishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarning iqtisodiy sohadagina emas, ma‘naviy sohada ham faollik muhiti axloqni yaqin o‘tmishgacha mavjud bo‘lmagan jihatlar bilan to‘ldirib, asta-sekin ijtimoiy faollikning ko‘nikmalari va yangi tajriba unsurlarini o‘zlashtirish orqali boyitadi. Bu borada yoshlarning yangicha ma‘naviy-axloqiy qiyofasi, faol pozitsiyasining shakllanishi uchun birlamchi asos bo‘ladigan bozor iqtisodiyoti, tadbirkorlik, oilaviy xususiy tadbirkorlik kuchlarining bir paytda rivojlanishi bilan erishish mumkin.

Shuning uchun yoshlar intellektual salohiyatini muntazam yuksalib borishiga erishish, ularda innovatsiyalarga intilish, innovasion ongni shakllantirish, ularning malakasini oshirish bu borada muhim ahamiyat kasb etib boradi. Buning uchun prezidentimiz ta'kidlaganidek, "... yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng jalb etish, zamonaviy kasb-hunarlar, raqamli iqtisodiyot ko'nikmalarini puxta egallashlari uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta'minlash jarayonlariga ko'maklashishni yangi bosqichga ko'tarishga erishish" zarur [1. B. 261]. Jamiyatda barqaror iqtisodiyotni ta'minlash orqali iqtisodiy islohotlar samaradorligiga erishish, xususiy biznesni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish, raqobatbardoshlik muhitini shakllantirish yoshlarning faol pozitsiyasini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi.

Halol mehnat, xususiy tadbirkorlik, kichik biznesning yoshlar ko'zida mavqeyini ko'tarish, bunday muhim xususiyatlarni yoshlarning ongida va hayotida aks etayotgan qadriyatlar tizimidan joy olib, muhim qadriyatlarga aylanishini ta'minlashga erishish, aksiologik ongida moddiy boyliklar yetakchi o'ringa chiqib qolishining oldini olish orqali ijtimoiy faollikning nufuzini oshirishga erishish mumkin.

Yuksak axloqiylik va yuqori ma'naviyat yuksak milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida, oliy maqsadlarga intilish orqali shakllanadi. Bu borada yoshlarda yuksak axloqiylik va madaniyatning mos kelishi, ular tomonidan davr talablari va ehtiyojlarini to'g'ri anglab yetilishi, vatanimiz oldida turgan vazifalarning idrok etilishi asosida o'z faol ijtimoiy pozitsiyasini belgilab olishi jamiyat kelajagini ta'minlovchi muhim ijtimoiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Bundan kelib chiqadiki, jamiyat oldida turgan vazifalardan biri qayd etilgan subektiv omil imkoniyatlarini to'g'ri tashkil etish va yo'naltirish, ularning salohiyatini yuzaga chiqarish, realizatsiya qilish uchun imkoniyatlar yaratish hamda ulardan to'g'ri foydalanishdan iborat.

Barcha jamiyat a'zolarining hozirda kechayotgan davr ruhini anglab yetishi, ularni o'z ongida to'g'ri aks ettira olishi muhim ahamiyatga ega. Chunki shaxsning davr ruhini his eta olishi, davrning shaxs oldiga qo'yayotgan talablarini to'g'ri idrok etishi, ulardan kelib chiqqan holda o'z hayotini, faoliyatini to'g'ri tashkil qilishi, bu jarayonga mos ravishda ma'lum aksiologik oriyentatsiyani amalga oshirgan holda, dolzarb qadriyatlar asosida o'z salohiyatini realizatsiya qilishi uning faol axloqiy pozitsiyani tanlashiga ijobiy ta'sir etadi. Bu borada shaxsning fikrlash tarzi va dunyoqarashining to'g'ri yo'naltirilishi, tafakkurining doimo oldinga intilishi jamiyatda o'zgarishlar va rivojlanishga olib keladi. Jamiyat yoshlarining o'zini jamiyatning yaratuvchisi, ijodkori sifatida anglashi, mamlakatning, millatning taqdiriga o'zining daxldorligini his etishi, yoshlarning subektiv omil sifatida jamiyat taraqqiyotida katta kuch ekanligini anglab yetishi ularning faol pozitsiyasini shakllantirishda muhim ma'naviy-axloqiy hamda psixologik omil bo'ladi.

Ma'naviyat – iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini harakatga keltiruvchi omillardan biridir. Ma'naviyat iqtisodiyot yuqori taraqqiy etganda yuksaladi. Yuqori ma'naviyatga erishish uchun faoliyatga ijodiy yondashuv, innovatsiyalarni olib kirish talab etiladi. Bunday faoliyat ishlab chiqarishga, o'qishga, ilmiy faoliyatga bog'liq bo'lishi mumkin. Ayniqsa, bu borada tadbirkorlik faoliyatiga asoslangan madaniyat muhim rol o'ynaydi. Tadbirkorlik madaniyati "... jamiyatdagi barcha soha va yo'nalishlarda muayyan maqsadga, rejalashtirilgan natijaga erishish yo'lida insonning jismoniy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan ma'naviy, aqliy tadbirlar to'plami va ularni amalga oshirish jarayonidir. Tadbirkorlik madaniyati tadbirkorning bozor iqtisodiyoti muhitini o'zgaruvchanlik xususiyatiga moslashib, mavjud huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda tashkiliy imkoniyatlardan faoliyati jarayonida samarali foydalanishni anglatadi" [12].

O'zbekistonda tobora taraqqiy etib borayotgan tadbirkorlik faoliyati jamiyatda yangicha axloqiy qadriyatlarni, bu sohada faol bo'lishga qaratilgan axloqiy elementlarni yanada rivojlantiradi. Yoshlarning ma'lum kasbiy oriyentatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Yangicha axloqiy qoidalar hamda qadriyatlar tizimining shakllanishiga zamin yaratadi. Jamiyatda yangicha mohiyatga ega bo'lgan qadriyatlar tizimining shakllanib, ularni yoshlar qadriyatlar tizimida aks etib borishi, albatta, yoshlarda faol pozitsiyaning shakllanishiga ta'sir etadi. Natijada yoshlar ham o'z faoliyatiga innovasion, kreativlik asosida yondasha boshlaydi. Ularning subektiv omil sifatidagi roli oshib boradi. Ular mamlakatda yangicha faollikka yo'naltiruvchi qadriyatlarni o'zlashtiribgina qolmay, ularni yaratishda ham ishtirok etadi. Natijada asta-sekin jamiyatda yaratuvchanlik, faollik muhiti shakllanib boradi.

Jamiyat taraqqiyotining dinamikasi, yuqori sur'atlari yoshlarning jamiyatda amalga oshayotgan obektiv ijtimoiy hodisalar, jarayonlarga faol munosabatiga bog'liq bo'lib, jamiyatning bu sohadagi vazifalaridan biri yoshlarning intellektual salohiyatini saqlab qolish, uni yanada o'stirish uchun imkoniyatlar yaratish hamda undan to'g'ri foydalanish orqali yoshlarning ehtiyojlarini

FALSAFA

qondirishdan iborat. "Inson omilining samarasi uni to'g'ri yo'naltirishga bog'liq. Yoshlar orasidan talantli, bilim olishga intiluvchi, intellektual va madaniy-ma'naviy salohiyatli, faol yetakchilarni izlab topish va tarbiyalash, ularning atrofida islohotlarni va innovasion jarayonlarni amalga oshiruvchi yadrosini, ya'ni kreativlik, yaratuvchilik, tashabbuskorlik, ijodiy yondashuvchanlik xislatlariga ega bo'lgan zamonaviy milliy kadrlarning yangi avlodini shakllantirish va tarbiyalab yetishtirish maqsadga muvofiq bo'ladi". [13]

Hozirgi kunda mazkur g'oyalarning yoshlarga singdirilishi ularda halol mehnat va unga to'g'ri munosabatni, shakllantirish, biror kasb-hunar o'rganishga harakat qilishga intilish xissini tarbiyalash orqali jamiyatda faol mehnat faoliyati bilan shug'ullanish hamda bo'lishga yo'naltiradi. Bunday zarur jarayonlar kelajakda yoshlarda faol pozisiyani shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Bu borada ommaviy axborot vositalari, Internet orqali yoshlarni faollashuviga yo'naltiruvchi, salohiyatini yuzaga chiqarishga undovchi diniy g'oyalarning targ'ib qilinishi ham foydali bo'lishi mumkin. Islom dinining savdo-sotiq, tadbirkorlik, xususiy mulk to'g'risidagi g'oyalarini tushunarli misollar bilan bugungi ijtimoiy hayot ehtiyojlari va talablari bilan bog'lagan xolda yoshlarga singdirishning usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqadiki, mamlakat yoshlarida faol fuqarolik pozisiyani shakllantirish faqat zamonaviy qadriyatlar, zamonaviy bilim va texnologiyalar bilangina cheklanib qolmasligi kerak. Bunda milliy tariximizning dunyoviy ahamiyatga ega bo'lgan muhim ilmiy, madaniy-ma'naviy merosi, milliy va diniy qadriyatlari, san'atining qaytarilmas xazinasini, durdonalari kabi mintaqaviyгина emas, balki umumjaxon sivilizatsiyasi tizimidan munosib o'rin olgan tarixiy-milliy boyliklarini ham o'rganish, ularni anglab yetish va ulardan g'ururlanishga asoslanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda tarixiylik va zamonaviylik bilan birga milliylik va umuminsoniylik tamoyillari uyg'unlashadi. Globallashuv olib kelayotgan ziddiyatli yangiliklar, innovatsiyalar, yangi ishtiroki milliy taraqqiyotga xizmat qiladi.

Ijtimoiy jarayonda jamoatchilik, jamoa kayfiyati, ruhiyati jamiyat taraqqiyotida ijobiy rol o'ynaydi. Yuqorida qayd etilgan holatlar asta-sekin jamiyatda ham faollik muhitini shakllantirishga olib keladi. Albatta, bu jarayonga jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi asosiy omil sifatida ta'sir etadi. Bu yo'lda yuksak g'oyalar, maqsadlar bilan birlashgan jamoa, ularning birgalikdagi faoliyati vatanga, jamiyatga, millatga xizmat qiladi. Mamlakat taraqqiyoti esa jamiyat a'zolarining, ayniqsa, yoshlarning kelajakka bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2008.-B.62.
2. Garadja V.I. Sosiologiya religii. M., 1996.-S.161.
3. Maksud R. Islam.-M.:Fair-press, 2001.-S.200.
4. Mizziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –T.: "O'zbekiston" NASHRIYOTI, 2021.-B.256.
5. Djavaxarlal Neru. Otkrytiye Indii. Kn.1.-M.:Politicheskaya literatura, 1989.-S.364.
6. Farobiy. Fozil odamlar shaxri.T.,1991.
7. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 262 b.
8. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 260 b.
9. Minyushev F.I. Sosialnaya antropologiya. – Moskva: Bratya Karich, 1997. – 192 b.
10. Parsons T. Sistema koordinat deystviya i obshaya teoriya sistem deystviya: kultura, lichnost i mesto sosialnyx sistem / V kn.: Amerikanskaya sosiologicheskaya mysl. – Moskva: Izdatelstvo MGU, 1994. – S. 462–478.
11. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 261 b.
12. Sayitxonov A.A. Tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirishda innovasion faoliyatning ijtimoiy-falsafiy tahlili: Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Farg'ona, 2022.
13. Yuldasheva F. O'zbekistonda globallashuv sharoitida ma'naviy yangilanishning o'ziga xos xususiyatlari. Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019. – 187 b.